

KO‘P AVLODLI OILANING TARIXAN SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

475-478

Ilminur shukurova,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya”
kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: psychologist.ilminur@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413471>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining oilaga oid qarashlari hamda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ko‘p avlodli oila shaklining tarixiy shakllanishi va psixologik mohiyati tahlil qilinadi. Oila masalasiga falsafiy, diniy va madaniy yondashuvlarning uyg‘unligi o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bunda tarbiya, mehr-oqibat, birdamlik va avlodlararo hurmat kabi qadriyatlarining inson ruhiyatidagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, oilaning ijtimoiy institut sifatidagi tarixiy evolyutsiyasi, uning jamiyat barqarorligi va shaxs shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, oila tuzilishi va avlodlararo munosabatlardagi o‘zgarishlar turli davrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘lab tahlil qilingan.

Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar oilani faqatgina iqtisodiy va huquqiy birlik emas, balki inson psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi hamda shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ko‘p avlodli oila, sharq mutafakkirlari, tarixiy shakllanish, oilaviy qadriyatlar, Markaziy Osiyo xalqlari, “Yassa” qonunlari, ijtimoiy moslashuv, avlodlararo birdamlik, sharqona an’analar.

Insoniyat tarixida oila eng qadimiy ijtimoiy institut sifatida nafaqat jamiyatning moddiy asosini, balki uning ma’naviy-psixologik tayanchini ham shakllantirib kelgan. Xususan, ko‘p avlodli oila modeli qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida barqaror qadriyat sifatida mavjud bo‘lib, u turli davrlarning siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlariga qaramay o‘z mohiyatini asrab qolgan.

Ko‘p avlodli oilaning o‘ziga xos jihati shundaki, unda avlodlararo birdamlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga mehribonlik bilan yondashish va o‘zaro hamjihatlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday fazilatlar esa inson ruhiyatida mustahkam ijobiy mexanizmlarni qaror toptirib, shaxs kamolotida muhim omil vazifasini bajaradi.

Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va Imom G‘azzoliy o‘z asarlarida oilaning mohiyati, uning axloqiy, ma’naviy va psixologik jihatlariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlarini tahlil qilish orqali nafaqat tarixiy tajribani o‘rganish, balki zamonaviy oilaviy munosabatlarning psixologik asoslarini ham chuqurroq anglash mumkin.

Jumladan, Abu Nasr Forobiyning aytishicha, oila haqidagi qarashlari shuni ko‘rsatadiki, oila—bu shunchaki qon-qarindoshlik bog‘liqligi emas, balki insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi, jamiyatdagi birlik va hamjihatlikni ta’minlovchi muhim psixologik va ijtimoiy hodisadir. Forobiy o‘z asarlarida odamlarning birlashish sabablari haqida fikr yuritarkan, ularning bir ajdoddan tarqalishi, qarindoshlik aloqalari va o‘zaro yordam orqali jamiyatning shakllanishini ta’kidlaydi. Allomaning fikricha, qarindosh-urug‘chilik rishtalari kuchli bo‘lgan joyda birlashuv, birdamlik va hamkorlik mustahkam bo‘ladi. Aksincha, ajdodlardan uzoqlashgan sayin bu yaqinlik susayib, hatto o‘zaro adovatga aylanib ketishi ham mumkin [1]. Demak, oila faqat biologik birlik emas, balki jamiyatdagi tinchlik va birdamlikning muhim manbai hisoblanadi.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” nomli asarida nikoh va oila har qanday jamiyatda axloqiy tartib va madaniyatning asosi hisoblanadi hamda bola tarbiyasida ota-onaning roli, oiladagi o’zaro hurmat, halollik, sabr-toqat kabi sifatlar oilaviy muhitda shakllanishi kerakligini ta’kidlaydi [2]. Alisher Navoiy esa “Mahbub-ul-qulub” asarida oilada kichik yoshdagilar odobi va axloqi orqali kattalar duosiga sazovor bo’lishlari, farzandni tarbiyalashdagi ota-ona va jamiyat mas’uliyati, shuningdek, oilaviy qadriyatlar uzluksizligi haqida so’zlaydi [3].

Oila va undagi shaxslararo munosabatlarning mustahkamligi va yaqin qon-qarindoshlar shuningdek avlodlararo munosabatlar tizimini yaxshilashda har bir oila a’zolarining o’rni ahamiyatlidir. Bu kabi qadriyatlar asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ayniqsa, o’z aksini topib kelgan. Markaziy Osiyoda turli davrlar, diniy qadriyatlar va zamonaviy o’zgarishlar oilalar tarkibiga va an’anaviy oila shakliga o’z ta’sirini o’tkazgan biroq, ko’p avlodli oila shaklida birgalikda yashash shakli yillar o’tsa ham o’z o’rnini butunlay yo’qotib qo’ymagan.

Qadimda miloddan avvalgi asrlardan Markaziy Osiyo aholisi oilalari ham kengaytirilgan oila turida yashab kelgan. Bunday oilada turmush qurgan va turmush qurmagan bolalar, nabiralalar bir hovlida yashagan va oilaning eng keksa yoki eng hurmatga sazovor a’zosiga bo’ysungan [4]. Ya’ni, Markaziy Osiyoda ko’p avlodli oilada yashash qadimdan nafaqat iqtisodiy zarurat, balki ijtimoiy va ma’naviy hayotning ham muhim asoslaridan biri bo’lgan. Chunki bir hovlida bir necha avlod vakillarining yashashi avvalo qarindoshlik rishtalarini mustahkamlab, birdamlik va hamjihatlikni ta’minlagan. Eng kattalarning hayotiy tajribasi va donoligi yoshlarga tarbiya berishning asosiy manbai sifatida xizmat qilgan.

Shuning bilan, keyinchalik XIII asrlarda kelib Mo’g’ullarning Markaziy Osiyoga hukmronlik davrlarida ham oilalarning ko’p avlod shaklida yashash shakli o’zgarmagan, aksincha mustahkamlangan. Chunki, Chig’atoy xonligi tarkibiga kirgan Movarounnahrda “Yassa qonunlari” joriy etilgan bo’lib, u aholining ijtimoiy tartibini belgilovchi kuchga ega, keng qamrovli qonunlar majmui hisoblangan. Yassaning aholi oilaviy hayoti haqidagi qismlarida oila boshlig’i, ya’ni otaning roli katta bo’lib, ko’p xotinlilikga ruhsat etilgan va bu har bir xotin hamda uning farzandlari bir uyda yashashlariga sabab bo’lgan. Mol-mulkni meros qilishda esa katta o’g’il asosiy merosni olgan, kichik o’g’il esa ota-onani parvarish qilgani uchun ularning xonadonida qolgan. Bu holat ko’p avlodli oila shaklida yashash shaklini tabiiy tarzda davom ettirishga asos bo’lgan. Yassa qonunlari bo’yicha katta avlod vakillari ayniqsa, keksalar va otalar maslahat beruvchi, tartib saqlovchi, qaror qabul qiluvchi mavqeida ko’rsatilgan. Bu esa ko’p avlodli oilada katta yoshli erkaklar, ayniqsa boboning so’ziga to’liq bo’ysunish kerakligini ta’minlagan. E.Teleuova yozganidek, “*Yassada ota oilaning rahbari, barcha mulk, chorva, yer, bolalar, xizmatkorlar ustidan mutlaq egalik qilgan*” [5; 174-b.].

Keyinchalik, esa XIV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar davlati tashkil topishi natijasida Yassa qonunlari biroz zaiflashgan. Biroq uning patriarxal oila modeli ustuvorligi haqidagi qismi, bu davrda islom shariati qonunlari bilan muvofiqlashgan holda uyg’unlashgan. 1411-yilga kelib temuriy shahzodasi Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Yassani qo’llashni batamom yakunlashga uringan bo’lsa-da, Temuriylar imperiyasida Yassaning ayrim qismlari muhimligicha qolgan [6]. Biroq, Temuriylar davrining asosiy oila modeli patriarxal modelga asoslangan bo’lib, bunda oila boshlig’i rahbarligida bir necha avlod vakillari bir xonadonda birgalikda yashashlari doimiy bo’lgan.

Arab halifali, Mo’g’ullar va Temuriylar davrida mustahkamlangan ko’p avlodli oila modeli keyingi bir necha asrlar davomida xatto bir necha sulolalar va xonliklar davrlariga kelib ham uzoq muddat davom etgan bo’lib, ko’p avlodli oila modeli Markaziy Osiyo xalqining asosiy oila modeli sifatida saqlanib qolgan. Biroq, bu holat XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda hukmronligi natijasida asta-sekin o’zgarishga uchray boshladi.

Jumladan, ruslar tomonidan 1917-yildan boshlab chiqarilgan qonunlar va qarorlar, avvalo, diniy nikoh, ota-onaning huquqlari va ko‘p avlodli oilalar shaklini o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Rossiyadagi siyosiy jarayonlar natijasida XX asrning boshida katta, ko‘p avlodli qishloq oilasi teng huquqli kichik nuklear shaxar oilasi bilan almashtirilgan [7; 180-b.].

Ya’ni mazkur davrda ma’lumotlarga asosan, XX asr boshlarida Xorazmda 30 dan 45 kishigacha a’zolarga ega bir qator oilalar, Farg’ona vodiysining ayrim joylarida 60-70, ba’zan esa 100 kishidan iborat oilalar bo‘lgan [8; 29-30-b.]. Demak, bunday shakldagi yirik ko‘p avlodli oilalar jamiyat hayotida birdamlik va iqtisodiy kuch manbai sifatida muhim o‘rin egallashi bilan birga, ular bir vaqtning o‘zida boshqaruv va psixologik muvozanat nuqtayi nazaridan qator qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan.

Shuningdek, ruslar tomonidan yangi qonunlar joriy etilishi natijasida katta oilalar asta sekin qisqara boshlagan bo‘lsa-da, ko‘p avlodli oilalarning ildizlari butkul yo‘qolib ketmagan. Ya’ni bunday murakkab tarixiy o‘zgarishlar jarayonida ham eng kami ikki, uch yoki to‘rt avlodning birgalikda yashashidan iborat bo‘lgan oila modeli xalqimizning qadimiy an’analarga chuqur singib ketgan avlodlararo birdamlik, kattalarni hurmat qilish va oilani muqaddas zamin sifatida qadrlash kabi qadriyatlar tufayli bugungacha saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlarining asarlarida oila inson hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qilinishi va tarixiy jarayonlarda ko‘p avlodli oilaning mustahkam o‘rin tutgani tasodifiy emas. Bu yondashuv oilaning faqatgina ijtimoiy yoki iqtisodiy birlik emas, balki inson ruhiyati, shaxslararo munosabatlar va jamiyatdagi birdamlikning asosiy tayanchi ekanini ko‘rsatadi. Avlodlararo birgalikda yashash an’analari, kattalarni hurmat qilish va kichiklarga mehribonlik bilan munosabatda bo‘lish qadimdan shakllangan psixologik mexanizmlar bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Shu sababli, oila masalasini faqat tarixiy yoki huquqiy nuqtayi nazardan emas, balki psixologik nuqtayi nazardan ham o‘rganish muhimdir. Bunday oilalar moddiy va ma’naviy resurslarni avlodlar o‘rtasida taqsimlash orqali oilaviy birdamlikni saqlash va jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [9].

Bugungi kunda oilaning turli shakllari mavjud bo‘lishiga qaramay, ko‘p avlodli oila modeli bilan bog‘liq qadriyatlar — mehr, sabr-toqat, birdamlik, tarbiya va mas’uliyat kabi sifatlar shaxsning ma’naviy va psixologik kamolotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demak, oilaning psixologik mohiyatini chuqur anglash va uni ilmiy jihatdan tadqiq etish nafaqat o‘tmish merosini asrab qolish, balki kelajak avlod tarbiyasida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. (A. Rasulov tarjimasini), Toshkent: Fan nashriyoti, 1965.
3. A.Navoiy. Mahbub-ul-qulub. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2018. 172-b.
4. Hongshan Lv. “Extended family and Tribal-Consanguineous State: Lawrence Krader on the social history of central Asia”, International Journal of Social Science and Education Research. Volume 5 Issue 7, 2022.
5. E.Teleuova. *From History of Nomadic Customary Law*. Sensus Historiae, 2012. Vol. VII(2), 169–180.
6. May, T. (2010). Great Yasa of Chinggis Khan: Document Analysis. In B. Bonhomme & C. Boivin (Eds.), *Milestone Documents in World History*. Salem Press. online.salempress.com.

7. Г.М. Цинченко. Политика в отношении семьи в первые годы советской власти. *Вестник Нижегородского Университета им. Н.И. Лобачевского*, -2015. 180-б.
8. О.Bo’riyev, M.Usmonov. “O‘zbek oilasi” Toshkent. “O‘zbekiston” -2012. 29-30-б.
9. I.B.Shukurova (2025) “Ko‘p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik jihatlari: zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili” O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [1/3/1] ISSN 2181-7324. 234-236-б.